

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

1.2021

**научно-теоритический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2021

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

	TAHRIR HAY’ATI:
JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN	ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori, JO‘RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuriduk fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO‘ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari), YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI	
2021 1(163)	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan. **GUVOHNOMA № 1131.**

MUNDARIJA

MATEMATIKA

Matyoqubov Zokir Qadamovich, Quryozov Dostonbek Baxodirovich. Matritsaviy sohalar uchun Karleman formulasi.....	3
Ибодуллаева Нафиса Мухитдиновна. Некоторые частные случаи обобщенной внешней кривизны поверхности.....	8

MEXANIKA

Джалилова Турғуной Абдужалиловна, Дадабоева Марғуба Мамасолиевна. Обтекание пластинки двухкомпонентным сверхзвуковым потоком.....	12
---	----

FALSAFA

Ёркулов Ҳакимбек Отакулович. Миллий тил ва миллий интеллектуал салоҳият.....	14
Бекчанов Дониёр. Жади́дчилик фалсафасининг шаклланиш негизлари.....	19
Саманова Шахло Бохтияровна. Ўзбекистоннинг халқаро экологик ҳамкорлик сиёсатида етакчи тенденциялар.....	22
Яздонов Улугбек Тошмуротович, Таникулов Жанибек Аширкулович. Жамоатчилик фикрининг ўзгаришчанлик динамикаси.....	25

HUQUQSHUNOSLIK

Мирсагатов Кахрамон Хайдарович, Азимов Акмал Атхамович. Меҳнатни муҳофаза қилишга оид талабларга риоя этилиши устидан давлат назорати ва текширувини амалга оширишнинг долзарб вазифалари.....	28
--	----

TILSHUNOSLIK

Курбанов Элбек Элмуродович. Нутқий таъсир ва нейролингвистик дастурлаш.....	32
Назарова Наргиз. Ўзбеклар оламнинг лисоний манзарасида оналик концептосферасига доир қарашлар.....	36
Исаков Зокиржон Солиевич. Ўзбек тилида сўз туркумларини таснифлаш хусусида.....	40
Садуллаева Нилуфар Азимовна, Махмудова Мафтуна Абдурашид қизи. Ўзбек ва инглиз тиллари электрон поэтик луғатини яратишда тимсоллар тасвири.....	42
Худайбергана Назокат Рахимовна. Лингвистик терминлар классификацияси хусусида.....	48
Джафарова Дилдора Илхомова. Тилшуносликда “тарихий хотира” га оид фразеологик бирликлар ва уларнинг таҳлили.....	54
Дадабаев Ҳамидулла Арипович. Термины, обозначающие военные чины, должности и титулы в староузбекских письменных памятниках XIV–XVIII вв.	56
Мамасолиев Илхам Убайдуллаевич. Теоретическое и лексикографическое аспекты изучения антонимии в русском и узбекском языках.....	62

ADABIYOTSHUNOSLIK

Холматова Нигора. “Шайх Санъон кассаси” бугунги ўзбек насрида рамзий метафора сифатида.....	67
Jerbarova Sayat Kurbanmuradovna. “Oshiq Najab” dostonida aytishuv janr xususiyatlari.....	69
Смамүтова Ширин Азатбаевна. Муҳаббат мавзусини тавсифлашда халқ анъанаси билан уйғунлик.....	74
Тожиёв Актам Мансурович . Алишер Навоий ижоди шарқшунос Олим Бертельс талқинида.....	77

PEDAGOGIKA

Абдурахимов Қўёшбек. Олий таълим муассасалари раҳбар кадрларининг ахборот компетентлигини ривожлантириш – педагогик муаммо сифатида.....	81
Раджабов Насир Насимович. Ўзбек аудиториясига инглиз тилини ўқитишда дифтонглар интерференцияси.....	87
Xujaniyozova Oygul, Abdullayeva Surayyo. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining adabiy-estetik tarbiyasini shakllantirishda she'riy asarlarning ahamiyati va ularni o'qitish metodikasi.....	90
Худайбергана Аниёз. Ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда ижодкорлик кўникмаларини шакллантириш.....	93

Ergasheva Muborak Qozoqboyevna. “Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda Corel Draw dasturining afzalliklari.....	95
Садирова Камола Гиёзовна. Эшителида нуқсони бўлган болаларнинг ақлий ривожланиш йўллари.....	97
Abdullayeva Maftuna Muxitdinovna. Surdopedagogika ta’lim yo’nalishida tahsil oluvchi talabalarda empatiya kasbiy sifatini rivojlantirishda o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotining ahamiyati.....	100
Турабова Севара Каттакуловна. Талабаларнинг аргументатив компетентлигини ривожлантиришда баҳс-мунозара методининг аҳамияти.....	102
Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна. Программно-методический комплекс в качестве эффективного средства использования информационных технологий в преподавании предмета теория алгоритмов.....	105
Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Ashirova Anorgul Ismoilovna, Baltayeva Iroda Ismoilovna, Xajiboyeva Surayyo Maxmudjonovna. Articulate storyline dasturida elektron resurs yaratish metodikasi.....	112

ILMIY AXBOROT

Расулов Сайдулла Қурбонovich, Тўрамқулов Шокир Нормуминович. Зарафшон воҳасининг биогео-кимёвий худудларида яшовчи кичик мактаб ёшидаги болалар соч таркибидаги макро- ва микро-элементларнинг соматометрик кўрсаткичлар билан ўзаро боғлиқлиги.....	117
Мамадалиев Жавлонбек Абдумуталиб ўғли. Андижон вилояти суғориладиган ерлар сифатини баҳолаш.....	122
Джумақулов Шухрат Баходирович. Маҳалла маънавий тарғибот объекти сифатида.....	124
Ражабов Ўткиржон Хурсаналиевич. Ижтимоий муҳитнинг шахс таракқиётидаги ўрни ва роли.....	127
Исомиддинов Азизбек Абдумажидович. Ҳаракатлар стратегияси ва ёшлар интеллектуал салоҳиятининг ижтимоий-маданий омили.....	130
Алламуратов Нурлыбай Есемуратович. Қорақалпоқ тилида компонентли юридик терминларни боғловчи воситалар.....	133
Choriyev Shokir Mamadaminovich. Chipqon atamasining fonetik, etimologik-semantik xususiyati.....	137
Аширбаева Дилором Равшановна. Корейс тилидаги ака (형/오빠) ва опа (누나/언니) мурожаатларининг этимологияси ва қўлланилишига доир.....	139
Cho‘lliyeva Gulchehra Toshpo‘lot qizi. Intonema haqida.....	143
Ибрагимов Хайрулла Ҳамдамович. Тўра Сулаймон ижодида теоморфик метафора.....	146
Каримов Рустам Абдурасулович. Параллел корпуснинг лингвистик, хорижий тил лингводидактикасидаги аҳамияти ва таржимонлик соҳасидаги имкониятлари.....	150
Махмудова Муаттар Махсатиллоевна. Ў.В.Гёте “Ғарбу Шарк” девонининг Мақсуд Шайхзода ва С.С.Бухорий таржималарига хос хусусиятлар.....	153
Atabekova Feruza Hujamkulovna. Badiiy asarlarda realiyalar tarjimai.....	157
Эрданов Зафар Даминович. Зулфиянинг поэтик маҳорати ва ўзбек таржимашунослиги муаммолари.....	160
Қурбанова Мунаввар. Шекспир услубидаги тизимли ва структуравий яхлитлик.....	164
Атажанов Сарвар Самандарович. Эркин Самандарнинг асар бадииятида турғун ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати.....	167
Низамова Феруза Алимуллаевна. Алишер Навоийнинг форсий ижодидан бир катра.....	171
Умрзаков Ислон Исроилович. Уильям Фолкнер асарларида “вақт” категорияси.....	173
Nusratilloeva Dilnoza Nusratilloevna. Xurshid Davron lirikasida tarixiy shaxslar obrazi.....	177
Nizomova Shoxista Shodiyevna. Zamonaviy she’riyatda suv va olov bilan bog‘liq obrazlarni ifodalash an’anasi.....	182
Эгамбердиева Азиза Мустафаевна. Таълимда ёшлар ташаббускорлигини оширишда фаол фуқаролик позициясининг ўрни.....	184
Мамаюсупова Диловархон Бегматовна. Давлат-хусусий шериклигининг мазмуни ва ўзига хос хусусиятлари.....	188
Sheralieva Shirin Abdisalomovna. The Problem of Interaction of Language and Religion.....	194
Khodjaniazov Sardor Umarovich, Jumaniyazova Nasiba Odilbekovna. Teaching Tourism Police with Cultural Intelligence.....	196

бўлган муҳаббат ва нафратдан азобланади. Сатпеннинг режаларида эса ҳам яратувчан ва ҳам бузгунчи кучлар мужассам.

Фолкнер воқеаларни изчил хронологик тарзда қайд этмайди. Ҳозирги замонга оид воқеалар эпизодлари доимий равишда ўтмиш воқеалари, қаҳрамонлар хотиралари, ҳикоялари билан алмашилиб туради. Адиб воқеа ва фактларни вақт чизиғи бўйлаб тартиб берган ҳолда жойлаштирмайди, балки уларнинг муҳимлиги даражасига кўра, мантикий қатор ҳосил қиладики, бу орқали ҳаёт йўлини тадқиқ этувчи махсус бир моделни, ўзгача бир хронологияни яратади.

Вақт категориясининг бу тарзда ифодаланиши Фолкнерга қаҳрамонларнинг ички кечинмалари, уларнинг ўтмиши ва ҳозирги ўртасидаги олишувлар орқали эса ички туғёнларини тасвирлашда қўл келган. Унинг қаҳрамонларининг аксарияти ўтмиш ва ҳозир ўртасидаги тафовутларда ўзлигини йўқотган, иллюзиялар билан яшаган ва охир-оқибат эса тақдирлари фожиали якун топган кимсалардир. Ўз даврининг ёзувчилари ижодидан фарқли ўлароқ, Фолкнер асарлари бахтли якун топмасди. У бутун Америка насрини фақат бахтли якун топгучи асарлар ёзишга бўлган интилишдан воз кечишга мажбур этди. Бу эса Америка адабиётида авлодлар алмашинуви вақти келганини англатар эди.¹

Хулоса. Фолкнернинг шахс, жамият ва вақт ҳақидаги қарама-қарши қарашлари унинг асарларида бадий вақтни талқин этишида ва ёзувчи ижодий меросининг хусусиятларини белгилаб берувчи образлар, композициялар, баён шакли типологиясининг ўзига хос жиҳатларида акс этади. XX аср Америка адабиётида Фолкнер янгилик ва ижодий илҳомдаги ўзгачалик билан ажралиб турди, бу унинг адабиёт мавзусига ва вазифасига бўлган муносабатида намоён бўлди. Бунинг ёрдамида у ўз даврининг энг яхши адабий анъаналарини бадий ижодда уйғунлаштира олди.

Nusratilloeva Dilnoza Nusratilloevna (Navoiy davlat pedagogika instituti) XURSHID DAVRON LIRIKASIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri Xurshid Davron lirika-sida tarixiy shaxslar obrazi haqida so'z boradi. Xurshid Davron individual uslubining asosiy qirralari sifatida tarixiylik va ramziylik bo'rtib turadigan xususiyatdir. Uning oshkoralik va demokratiyaga atalgan yillardagi ijodida ramziy obraz va majoziylik muhim o'rin tutsa, istiqlool arafasi va undan keyingi yillarda tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish xususiyati kuchaydi.

Аннотация. В статьях один из ведущих представителей узбекской литературы Хуришид Даврон рассказывает об образе исторических личностей в своих текстах. Индивидуальность стиля Хуришида Даврона – это особенность, которая подчеркивает основные аспекты, такие как история и символизм. В его произведениях, посвященных демократии и откровению, важную роль играют символический образ и метафора, а накануне независимости и в последующие годы нарастает особенность трансформации исторической реальности в художественную.

Annotation. This article deals with the image of historical figures in the lyrics of Khurshid Davron, one of the leading representatives of Uzbek literature. Khurshid Davron's historical and symbolic features as the main aspects of his individual style are exaggerated. Symbolic imagery and metaphor are important in his works dedicated to the years of independence and democracy and before independence, the ability to transform from historical reality into artistic reality is strengthened.

Kalit so'zlar: adabiyot, lirika, tarixiy shaxslar, ramziy obrazlar, majoziy obrazlar.

Ключевые слова: литература, лирика, исторические фигуры, символический образ, аллегорический образ.

Key words: literature, lyrics, historical figures, symbolic images, figurative images.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ma'naviy-ma'rifiy sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, buyuk adiblarimiz ilmiy merosini o'rganish, tadqiq etish, ma'naviy merosimiz bo'lmish qadimiy qo'lyozmalarni asrash, tarjima qilish, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz orasida kitob o'qish va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, Toshkent davlat yuridik

¹ Засурский Я.И. Американская литература XX века. М., «Наука», 1966, с. 123.

universiteti G'afur G'ulom nomidagi maxsus stipendiya hamda ko'krak nishonini ta'sis etdi. Albatta, bu imkoniyatlar yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalarni yanada rivojlantirishga, yangi iste'dodlarni kashf etishda bir turtki bo'lsa, ajab emas.

Bugungi kun o'zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri hisoblanmish Xurshid Davron o'z zamonadoshlarining dard-u quvonchlarini, ruhiy istiroblarini o'z vaqtida anglab yetgan shoirlardandir. Asosan, 70-yillar so'ngidan boshlab kishilar ruhini bezovta qilgan tuyg'ular shoir qalbida aks sado berib, poetik kashfiyotlarga aylandi. Mazkur bitiklar esa kitobxonlar auditoriyasini respublika miqyosida kengaytirdi.

Xurshid Davron istiqlolni, xalqni ozod ko'rishni, uning nomi, sha'ni, zukko va chapdastligi afsona va rivoyatlarga aylanib ketgan tarixiy shaxslar hayoti, ilmi ziyosi, kurashchanligi, mardu jangovarligini madh etish bilan boshladi. Bu bilan shoir o'tganlarni xotirlash bilan zamondoshlarini ajdodlariga munosib bo'lishga chaqirdi. Uning o'z so'zi bilan aytganda, "Tarixda kelajak kunlar yashirin, qaytgan sayin o'tgan kunlarga yaqinlashasan". Muddao ham shu edi, aslida.

Qariyb 130 yillik mustamlaka o'zbek xalqining ruhini tushirib, tuyg'ularini mudroqlashtirib qo'ygan edi. Ularni g'ururini ko'tarish uchun qilingan sa'y-harakatlar ibtidosi o'tmishini, ota-bobolari bosib o'tgan shonli tarixni tiriltirishdan iborat edi. Qay bir ma'noda baralla iftixor bilan aytish mumkinki, 70-yillar avlodi bunga erisha oldi ham. Ana shunday shonli tarixning, go'yo ikkinchi jadidlar harakatining buyuk yetakchilaridan oldingi safda tura oladigani, shubhasiz, Xurshid Davrondir.

"Oybek rus adabiyotshunosi va tarjimoni A.Naumov bilan qilgan qilgan suhbatida "Tarix bu adabiyot, adabiyot esa tarixdir", degan so'zlarni aytgan. Bu so'zlar shu ikki sohaning o'zaro yaqinligini ifodalabgina qolmay, badiiy adabiyotning tarixsiz nafas ololmasligini, tarixning esa badiiy ijodda, adabiy asarlarda benihoya katta o'rin tutishini ham anglatadi"¹ deb yozadi N.Karimov. Darhaqiqat, shoir ijodida tarix va tarixlarni yaratishda katta rol o'ynagan buyuk shaxslar ijodi bosh planga ko'tarilgan.

O'tgan asrning 70-yillaridayoq shoirning "Qodiriyning so'nggi surati" nomli she'ri matbuot yuzini ko'rgan. Yozuvchi suratidagi mung, alam hasrat, xalqi dardi bilan yonishga tayyor turgan shoir diqqatini o'ziga tortadi. Qodiriyning g'amginligi sabablarini bir-bir o'zidan so'raydi. Kumushbib, Otabek qissasini so'ylab bermoqchimisan yoki o'z darding bilan o'rtoqlashmoqchimisan, deya murojaat qiladi. Darvoqe, 70-yillarda Qodiriy jisman to'liq oqlangan bo'lsa-da, uning adabiy merosi to'liq oqlanmagan. Xalq sevimli adibi asarlaridan bebahra edi. U haqda tadqiqotlar olib borilmasdi. Shoir o'z dardingni so'ylamoqchimisan, deganda shu voqealarga nozik ishora qilib o'tadi. Xalqi dardini ochiq-oshkora aytish mumkin bo'lmagan davrlarda shoir jamiyatda ko'rgan nohaqliklari uchun hasrat chekishdan boshqasi qo'lidan kelmaydi. Shunday g'amzada holatlarda yolg'iz panoh, g'amgusor o'sha Qodiriy surati. Shoir sherini "Qodiriyning so'nggi surati" deyishida ham ramziy ma'no bor. Qodiriyning so'nggi surati hozir ham bor, demak, u so'nggisi emas ekan. Anglash mumkinki, gap surat haqida emas, balki Qodiriyning so'nggi so'zi – asarlari haqida. Shoir suratdan panoh izlamaydi, yozuvchi yozib ketgan satrlardan dardiga malham izlaydi.

*Yo'llarimda uchrasa xato,
Qiy nab qo'ysa elim hasrati,
Kelib sendan izlayman panoh
Qodiriyning so'nggi surati.*²

"Afrosiyob xotirasi" she'ri 1979-yilda yozilgan. Bu she'rni mazmunan o'zgartirib, "Samarqand xotirasi" deyish ham mumkin. Poetik g'oya shunga yaqin. Chor Rossiyasi tomonidan to'pga tutilgan tarixiy obidalar yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Xarobaga aylanib ulgurgan shaharni xotirlaydigan joyi yo'q. Bu shaharning go'zalligi, "Sayqali ro'yi zamin"ligi uchun emas, tug'ulgan yurt, ilk sevgi nish otgan joy sifatidagina xotirlash mumkin deydi shoir.

*Faqat sen qolgansan ko'ksimda, sevgi,
Faqat sen qolgansan ko'zimda, sevgi,
Bu ulug' shahardan xotira bo'lib*

Shoir, dastlab, mavzuga taalluqli bo'lmagan ayrim she'rlarida ham tarixiy shaxslarga u yoki bu ma'noda murojaat qilib, o'z davri ozorlaridan shikoyat qilib o'tadi. Butun bir she'r tarkibidagi birgina misra, satr ham kishi tuyg'ularini ag'dar-to'ntar qilib yuborishga qodir. Masalan, "She'riyat – bu qiyin ish emas" deb boshlanuvchi she'rda o'tmishga birgina murojaat bor. Mustamlaka yurtning ahvoliga qarang, To'marisdek el boshida turadigan, butun bir mahallani boshqaradigan faol ayollarimiz qo'llarini chanoq

¹ Mustaqillik davri adabiyoti. T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006, 55-bet.

² X.Davron. Bahordan bir kun oldin. T., "Sharq", 1997, 7-bet (barcha she'rlar shu kitobdan olindi).

tilib, loyga botib, eng sodda, o'qimagan oddiy ayollar bilan paxta ko'tarib yurishidan achinadi shoir.

To'marisdek ayol qo'llarin

Chanoq tig'i tilarkan.

Qog'ozdagi she'rim yo'llari

Yuragimda qon qoldirgan iz.

"Afrosiyob devoridagi ko'zlar" she'rida olis o'tmishda yashab o'tgan Alp Er To'nga haqida gap borsa-da, Mahmud Tarobiy shaxsiga e'tibor qaratiladi. Tarobiy shaxsi ulug'lanib, uning tutgan yo'li haq yo'l ekanligi, uning so'nggi oshyonini buzganlarni unutib bo'lmasligini xotirga olish bilan, birovning uyini buzganlar, albatta, jazo olishlarini aytmoqchi bo'ladi. "Adabiyot – she'r, doston emas" deb nomlanuvchi she'rda fikr doirasi san'atning bir turi – adabiyot atrofida aylanadi. Adabiyotning vazifasi siz-u biz o'ylaganchalik jo'n emasligi aytiladi. Xotimada, to'rtinchi badda esa kutilmagan qaror chiqariladi. Birgina tarixiy shaxsning nomi qayd etilishi bilan adabiyotning, shoirning qismati oydinlashadi.

Adabiyot – cheti titilgan,

Qo'lyozmamas, qo'yilsa asrab,

Adabiyot – dorga tortilgan,

Shoir Boborahim Mashrab.

Qo'shiq ikki usulda: biri shodlik va quvonch damlarida, biri yurtidan, ota-onasidan, sevgan kishidan ayrilgan chog'larda bitiladi va aytiladi. Aslida, shodlik va quvonch onlarida to'qiladigan qo'shiqlar ham qayg'u va dardning hosilasi, ya'ni "yorug'likka chiqdik, qayg'u va azoblarni yengib o'tdik" deb yaratiladi. Bu xuddi Navro'z bayramida to'qiladigan xalq qo'shiqlariga o'xshab ketadi. Qo'shiq-she'r yurakdan sirqirab chiqsa, u haqiqiy bo'lishi, umri uzoq bo'lishi aytiladi. Qo'shiqni Boburga o'xshatish bilan yurtni Bobur kabi sog'inib yashagan shaxsning qo'shiqqa aylangan avtobiografiyasi yoritiladi.

Oh bu qo'shiq,

Inson taniga

Qanday sig'di bu Hasrat, bu nur.

Bu qo'shiqmas,

Bu vatanga

Qaytayotgan sargashta Bobur.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev "Erk va g'urur" maqolasida Xurshid Davron ijodi haqida shunday fikr bildiradi: "Shoir millati va vatanini sevgani uchun uning tarixini ko'p kuylagani, shubhasiz. Ammo bu yagona sabab emas. U millat-u vatanning bugunidan qoniqmasdi. Shu bois shoir mavzuni ko'proq tarixdan olardi. O'zbekning shonli, ulug'vor tarixini yodga tushirish bilan qulligiga ko'nikkan, ko'nikibgina qolmay, bu holidan quvonadigan darajaga kelgan millatdoshlarining ko'zini ochmoqchi, asli kimligini esga tushirib, g'ururini uyg'otmoqchi bo'lardi".¹

Adabiyotshunos olim to'g'ri ta'kidlaganidek, shoir o'z xalqining yashash tarzidan, millat sifatida o'zligini namoyon eta olmayotganligidan alamdiya bo'layotganligi rost. Aks holda, "Botir Namoz o'limi" she'rida bunday satrlarni yozmagan bo'lardi.

Erkaklar gul – ayolini

Hidlab yotgan kechada,

Botir Namoz o'limni

Izlab chiqdi ko'chaga.

Yurtning erkaklari g'aflat uyqusida, botiri esa el osoyishtaligini o'ylab, mustamlaka kuchlarning g'ayrushuuriy harakatlariga qarshi ochiq jangga otlangan. Shoir Namoz botirga xalq yordamga chiqolmasligini sezib, sokin tundan xalq qahramoniga ko'mak berishini, ya'ni tun uni yutib o'z og'ushiga olishini, dushmanlardan yashirishini iltijo qiladi.

O, javzo quchoqlagan

Qorong'u tun – sokin yurt!

Yurtim deya tinmagan

Chavondozing yashir, yut!

Mazkur g'oya Namoz haqidagi yana boshqa bir "Namozni yov o'ldirgan tunda" she'rida ochiq-oydin o'z tasvirini topadi.

Namozni yov o'ldirgan tunda

Choyxonada osh yeb bo'kkancha,

¹ Q.Yo'ldoshev. So'z yolqini. T. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2018, 132-bet.

*Guruchlarni har yon to'kkancha,
Pishillab uxlardi qishloqlar.*

Xurshid Davronning "Padarkush" she'rining hajmi kichikroq dostonga teng. Shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlarning ham salmog'i katta. She'r garchand Ulug'bekning farzandi shaxzoda Abdulatif haqida bo'lsa-da, she'rda Abdulatif bir timsol. Shoir tushida Mirzo Ulug'bekni ko'radi. Ulug' astronom bilan shoir o'rtasida dialogik nutq jarayoni boshlanadi:

*So'ra bilarmidi: ishi kelmas o'ng
Kimki otasi-yu og'asin so'yar.
Nizomiy aytgandek
Olti oydan so'ng
Saltanat taxtini boy berib qo'yar.*

Ulug'bek "So'ra bilarmidi?" ritorik so'rog'i bilan o'zbekona urf-odatlarining barchasini birma-bir aytib chiqadi. Ota-onasini xor qilgan, itdek xor bo'lishini, otasi yaratgan bog'ni quritganni, bir kun kelib, o'zi ham qurishini bilarmidi. So'ra tilini, elini, dilini sotgan kishini ortidan tig' sanchishlarini, bilmasa kerak, agar bilganda, mening farzandim bunday qilmasdi, deb olim – shoh nola qiladi.

*So'ra, biladimi erka farzandim,
Bilmasa bilgani yaxshi, kech emas.
Uni bu dunyoda, u dunyodayam
Otasidan boshqa hech kim kechirmas.*

*O'sha dam zulmatdan keldi bir sado:
"Birisi shahiddir, birisi qotil.
Uchinchisi esa,
Uchinchisi, voh
Hamon uxlab yotar, bu sensan, g'ofil!"*

Yo'qlikka g'oyib bo'lgan tush – sharpa: "Ularning birisi shahid bo'ldi, birisi qotil degan nom oldi. Lekin har ikkisidan battari sensan, uchinchisan, tomoshabinsan", degan tavqi la'natni shoir yelkasiga ilib ketadi. Xurshid Davron ijodiy faoliyatida, mening nazarimda, xuddi ana shu uchinchisi odam g'ofillar, befarqlar, bersang, yeyman, ursang, o'laman qabilidagi kishilar onggu shuurini o'zgartirishga harakat qilib yashadi. Dushman qilich-qalqon ko'tarib keladi, qahramon elini himoya qilish uchun jangga o'tlanadi. Jangda u shahid ketadi. Qotil qo'li qonga botgancha yana qon istab izg'iydi. Sotqinlar ularning xizmatida bo'lsa, g'ofillar bola-chaqasini boqadi.

*Ammo qichqirmayin qanchalar bo'zlab,
Tovush chiqarmadi biror biro dam.
Go'yo qulog'i kar, jonini ko'zlab,
Yurganlar yurtiga aylanmish olam.*

She'r yarmidan o'taverib padarkush obrazi umumiylik kasb eta boradi. Sho'rolar davri – padarkushlar davriga o'xshatiladi. "Bobolar hikmati", "Momolar sarvati" g'orat qilinganligi, Tarobiy maqbarasini buzgan ham, tarobiylar chiqmasin deb, tarixni qayta tuzgan ham, qor tushgan paxtazorlarga bolalarni quvib solgan ham, padarkushlar ekanligi aytiladi. Haqiqatdan ham, o'z otasiga qarshi borgan, o'z vatani – ota makoniga qarshi borgan bo'lmaydimi, vataniga qarshi borgan padarkush bo'lmay, manqurt bo'lmay kim bo'lsin. Ular qorin g'amida birovni sotishdan, birovni o'ldirishdan, xalqni, elni vatanni badnom qilishdan qaytmaydi. Shoir shunday kimsalarni umumiy nom bilan padarkushlar deb ataydi. Yurtning zukko, aqlli farzandlari yurtga bostirib kelgan yog'iy larni o'ldirib botir bo'lsa, tarixiy shaxs nomiga musharraf bo'lsa, ular:

*Seni jondan suygan,
Dardingda kuygan,
O'g'illaring nomi ataldi harom.
Qodiriy otildi, Cho'lpon otildi,
Fazulla Xo'jayev qilindi badnom.*

*Seni jonidan ortiq,
Jahondan ortiq
Ko'rganlarning dili og'riqqa to'ldi.
Fitrat-u Behbudiy ko'kragida tig',*

Usmon Nosir sovuq Sibirda o'ldi.

Elning botir o'glonlari mabh etib, "botir" bo'ladilar. Ular uchun botir bo'lishning boshqa yo'li yo'q. Padarkushlar orqadan bironing so'z, gapi, qo'li bilan o'z poyiga, avlodlari poyiga bolta uruvchilar. Orqadan ish bitiruvchilar doim marning ziddi bo'lishadi. Mard qilgan ishning teskarisini qilishadi. Shuning uchun ham xalqimiz birgina so'z bilan ularni nomard deb ataydi. Lekin shoir bunday yo'l bilan hech uzoqqa borib bo'lmashligini, padarkushlarning mingtasidan bitta botir ko'proq ko'rinishini ta'kidlab, xalqi ko'nglini ko'taradi, o'ziga tasalli beradi.

Kuyinma, padarkush zoti ko'p, desam.

Mardi yo'q ularning, hammasi qo'rqqoq.

Vatanim, seni deb yurganlar esa

Bitta bo'lgandayam ulardan ko'proq.

1981-yilda yozilgan "Bobur" she'rida shoh va shoir timsolida muhim bir g'oyani ilgari surgan. Boylik, yaxshi yashash, xullas, qorin to'ydirish ilinjida xorijiy davlatlarga chiqib ketayotgan, ba'zan o'sha yerning fuqaroligini olib yashayotgan zamondoshlarimizga nisbatan bir necha yillar oldin o'qilgan hukm deb tushunish mumkin. Xurshid Davron she'riyatining tarixiy ahamiyati ham shunda.

Zahriddin bu qanday savdo,

Qora hijrat sari yuz tutmoq?

Yuragingni etar-ku ado –

Tirik turib vatandan ketmoq?

Zahriddin, ortga bir qara,

Ortga bir boq, toki sen omon.

Axir keyin tushlaringda ham

Bu tuproqni ko'rmog'ing gumon.

"Xurshid Davron vatanni o'tmish-hozir-kelajak kesimlarida idrok etadi. Uning uchun halqalarning bari birdek muhim. Shu sabab aytadiki: "O'tmishga yo'l solib, kelajaging bilib qayturman". Demak, shoir Vatan kelajagini o'tmish orqali idrok etayotir va shu sabab ham uni porloq shavkatli o'tmishga munosib qiyofada ko'radi", ¹ deb yozadi shoir va munaqqid Ulug'bek Hamdam. Shoirning "Bobon botirning o'limi oldidan aytganlari" she'rida xuddi o'sha "o'tmish-hozir-kelajak" kesimi so'zining mukammal ifodasini topgan. Tarix oldida 100–200 yillar uzoq davr emas. Manguberdilar, temuriylar boburiylar kurashib el boshini baland ko'tarishdi. Bugun-chi? "Demak, hali musavvir ko'r, olim soqov, shoir kar. Bobo qo'rqqoq, ota sotqin, ona zolim, aka g'ar". Buguni shu holatda bo'lgan xalqning ertasiga ishonish mumkinmi? Endi bu yerda dil toptaladi, imon esa izsiz yo'qoladi. Bir paytlar barq urib o'sgan har giyoh, xas kabi qurib bitadi. Onalari tahqirlanib, erkaklari bichiladi. Bobolarning kitoblari xor bo'ladi. Har zarrasi oltinga teng bo'lgan maskanda xalq gado bo'ladi. Ana shunday sharmandagarchilikdan qutulib qolishning chorasi bormikan, shoir bor deb o'ylaydi.

Demak, hali...

Demak, hali...

Demak, hali kech emas,

Qonimizni to'ksak yashnar

Quriyotgan har bir xas.

Demak, hali janglar bordir,

Xudo shohid, so'zim haq:

Dengiz bog'lar ko'tarilmas,

Ko'tarilmas ekan xalq.

Inson o'z vatani boyliklarini o'zi asraydi. Bog'larini o'zi ko'kartiradi. Dengiz va daryolarini qurmay avlodlarga bus-butun yetkaza oladi. Uning uchun xalq ko'tarilishi kerak, ya'ni mustaqillik qo'lga kiritilishi kerak. Ana shu mustaqillik esa qurbonlarsiz bo'lmaydi. Bobon botirlarning orzulari o'shanda amalga oshadi. To'kilgan qon bekorga to'kilmagan bo'ladi.

Demak, hali ko'chalarga

Chiqaylik, kech bo'lmashdan,

Ona yurti saqlab bo'lmash

¹ U.Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati. T., "Adib", 2012, 179-bet.

Jangohlarda o'lmashdan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xurshid Davron she'rlarining barchasi ijtimoiy munosabatlar tahliliga keng e'tibor qaratilgan. Chunki shoir xalqi ozodligi yo'lida, o'zbek xalqi hech kimdan kam emasligini isbotlash yo'lida bor kuch va mahoratini ishga soldi. Xalqining g'urur va iftixorini yuksaltirishga, ong-shuurini, erk va ozodlik tuyg'ulari bilan boyitishga iste'dodini bag'ishladi. Shoir esselaridan birida "Dilida o'qish zavqi so'nmagan, o'z tarixi bilan qiziqqan, ajdodlari hayoti bitilgan kitoblarni sevib o'qigan xalq buyukdir", deb yozadi. Haqiqatdan ham, shoir orzu qilgan buyuklik – kitobxonlikning keng ko'lamda har bir oilaga yetib borishi yoshlarimiz dunyoqarashida, tafakkurida keskin burilish yasamoqda. Bugungi uchinchi Uyg'onish davrini boshidan kechirayotgan o'zbekistonlik har bir vatanparvar insonlar qalbi parvarishida Xurshid Davron aql zakosi ham porlab turibdi.

Nizomova Shoxista Shodiyevna (Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi)
ZAMONAVIY SHE'RIYATDA SUV VA OLOV BILAN BOG'LIQ OBRAZLARNI
IFODALASH AN'ANASI

Annotatsiya. O'zbek she'riyati bir-biridan ajoyib ramzlarga, o'xshatishlarga boy. Ayniqsa, suv va olov tasviri she'riyatimizda o'ziga xos obrazlilikni yaratgan. Ushbu maqolada zamonaviy she'riyatda suv va olov bilan bog'liq obrazlarning ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Misollar, asosan, zamonaviy she'riyatdan olingan.

Аннотация. Узбекская поэзия богата чудесными символами и аналогиями. В частности, образ воды и огня создал уникальные образы в нашей поэзии. В статье рассматривается представление изображений, связанных с водой и огнем, в современной поэзии. Приведены примеры в основном из современной поэзии.

Annotation. Uzbek poetry is rich in wonderful symbols and analogies. In particular, the image of water and fire has created a unique imagery in our poetry. This article discusses the representation of images associated with water and fire in modern poetry. The examples are mostly taken from modern poetry.

Kalit so'zlar: zamonaviy she'riyat, obraz, badiiy obraz, an'ana, qadriyat.

Ключевые слова: современная поэзия, образ, художественный образ, традиция, значение.

Key words: modern poetry, image, artistic image, customs, value.

Ma'lumki, hayotda, jamiyatning turli jabhalarida ro'y bergan o'zgarish va evrilishlar adabiyot va san'atda ham o'z ifodasini topadi. Bu narsa eng hozirjavob so'z san'ati sohasi sanalmish she'riyatda yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham she'riyat nisbatan tez yangilanadigan, shaklan va mazmunan zamon bilan hamohang qadam tashlaydigan soha sanaladi. Shu sabab ham bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she'riyat ko'proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida hayot ziddiyatlarini ko'rsatgan bo'lsa, bugung ishe'riyat ko'proq o'z nigohini insonning botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg'ularini ochib berish asnosida, insonni o'zi bilan tanishtirdi. Bunda u o'ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko'chimlardan foydalandi, ularga alohida e'tibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining tabiatini teran va to'laroq ochish, shuningdek, ta'sirliroq ifodalash bilan belgilandi. Chunki bunga bugunda har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.¹

Zamonaviy o'zbek she'riyatida suvga e'tiqodning hayotiy asoslari shundaki, inson – tabiatning bir bo'lagi. U suvsiz yashay olmaydi. Suv inson tirikligining garovi hisoblanadi. Suv tabiatdagi to'rt muhim unsurning biri. Buni buxorolik shoir Sadriddin Salim Buxoriy she'rda shunday ta'riflab ko'rsatadi:

To'rt unsurdan biri suv erur, O'zgasidir xoku el, otash. Ildiz suvga yetgani zahot Bo'lgay hayot un-suri tutash.

Darhaqiqat, suv – hayotiy quvvat manbai. Suvsiz tiriklikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha mavjudotning hayoti suv bilan bog'liqdir. Suv – non kabi inson uchun aziz. Suvsizlikdan, tashnalikdan inson organizmi o'lim topishi aniq.

Bir burda non bilan to'yadi odam, qultum suv qondirar chanqog'ni.

Suv – tiriklik manbai. Usiz nafaqat inson, boshqa tirik jonzotlar ham yashay olmaydi. Insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi tirikligi uchun, albatta, suv zarur. Ana shu sabab uni "obi hayot" deya ta'riflaydilar:

¹ Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob, Toshkent, «Yozuvchi», 1999.